

**JINOYAT PROTSCESS ISHTIROKCHILARINING HIMOYA QILINISHI
KAFOLATLARINING TARIXIY BOSQICHLARI**

Bozorov Jasurbek Saydulla o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy
maktabi*

*“12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud
ekspertizasi” ixtisosligi tayanch doktoranti*

Telefon: +99894 338 69 99. jasurbekkbozorovqash@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda jinoyat protsessining sudga qadar bosqichida ishtirokchilar tushunchasining vujudga kelishi, ularning huquqiy maqomi, huquqlari va majburiyatlari, shakllangan davrla hamda ushbu davrlaga xos bo'lgan alohida belgilari tahlil qilinadi. Dastlab jinoyat protsess ishtirokchilarining huquqlari qanday shakllanganligi va ularning vazifalari nimalardan iborat bo'lganligi hamda ushbu huquqlarning himoya qilinishi qanday ko'rinishda bo'lganligi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Kontekstga mos holda, jinoyat protsess ishtirokchilarining himoya qilinishi kafolatlarining tarixiy bosqichlari bo'yicha tegishli xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: jinoyat protsess ishtirokchilari, tarixiy bosqichlar, mustaqillik davri, huquq va manfaatlar, sudga qadar bosqich.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi haqida fikr yuritish ekanimiz bunda, albatta, tarixga, shu jumladan, bu organ faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Tarixiy faktlar hamda huquqiy asoslardan kelib chiqib prokuratura organlarining vujudga kelishi va rivojlanishini quyidagi bosqichlarga bo'lishimiz mumkin:

- ❖ xonliklar davridan to 1867-yilgacha bo'lgan davr;
- ❖ 1867-yildan 1917-yilgacha bo'lgan davr;

- ❖ 1917-yildan 1922-yilgacha bo'lgan davr;
- ❖ 1922-yildan 1978-yilgacha bo'lgan davr;
- ❖ 1978-yildan 1991-yilgacha bo'lgan davr;
- ❖ 1991-yildan 2001-yilgacha bo'lgan davr;
- ❖ 2001-yildan hozirgi kunga qadar bo'lgan davr.

Birinchi davr. (*Xonliklar davridan to 1867-yilgacha bo'lgan davr*).

O'zbekiston Respublikasi hududiga prokuratura tariqasidagi davlat organining kirib kelish tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya tomonidan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonligidan iborat

O'rta Osiyo bosib olingunga qadar bu yerda prokuratura deb nomlangan maxsus idora bo'lmagan. O'rta Osiyoda, prokuratura deb nomlangan idora va prokuror deb ataluvchi mansab yoki lavozim bo'lmagan bo'lsada, shariat qonunlarining bajarilishini nazorat qilib turuvchi maxsus lavozim va ushbu vazifani amalga oshiruvchi shaxslar bo'lgan. Tarixiy asarlarga tayanib aytadigan bo'lsak, bunday shaxslar muhtasib deb nomlangan. "Muhtasib" so'zi arab tilidagi asli "hasaba" fe'li o'zagidan yasalgan. Ushbu fe'lning ot shakli "hisba" – hisob-kitob, ajr, evaz, mukofot, o'lchov va og'irlik o'lchovlarini nazorat qiluvchi mansab ma'nosini anglatadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, muhtasib yuqorida keltirilgan turli masalalarda nazorat qiluvchi shaxs hisoblagan.

Shuningdek, muhtasib to'rt mazhab bo'yicha taqiqlangan ishlarni, narsalarni bilishi va o'z mustaqil fikrini shariatga zid bo'lmagan holda bayon eta olishi kerak bo'lgan. Ushbu vakolatining ko'pchiligi ham bugungi kunda prokuratura organlari tomonidan amalga oshirilgan vazifalarga juda o'xshash hisoblanadi.

Ikkinchi davr. (*1867-yildan 1917-yilgacha bo'lgan davr*). O'rta Osiyoda to'g'ridan to'g'ri prokuror nazorati deb nomlangan institut, shu terminologiyaning qo'llanishi 1867-yilda qabul qilingan Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi vaqtinchalik nizom loyihasida nazarda tutilgan xolos. Lekin bu davrda prokuratura maxsus organ sifatida hali tashkil etilmagan edi. Prokurorlik vazifasini o'z tashabbuslariga ko'ra, harbiy gubernatorlar olishgan. Turkiston o'lkasining

(Sirdaryo viloyati, Zarafshon okrugi, Amudaryo bo'limi) uch mustaqil ma'muriy hududga bo'linishiga ko'ra uch "prokuror": Sirdaryo gubernatorining o'zi, Zarafshon okrugi boshlig'i va Amudaryo bo'limi boshlig'i bor edi. Ushbu mansabdor shaxslar ishlarni sudlovlik bo'yicha tegishlilikini qayta ko'rib chiqishlari, ularni ma'muriy tartibda hal qilishlari va o'zlarining qarashlari bo'yicha harakatdan to'xtatishlari mumkin bo'lgan. 1887- yil Adliya vazirining buyug'iga ko'ra, Rossiya Adliya vaziriga ma'muriy tartibda bo'ysunuvchi Sirdaryo, Yangi Marg'ilon, Samarqand, Vernensk viloyat sudlari qoshida prokuraturalar tashkil etildi. Rus podshosining Turkistondagi prokuraturasi ma'muriy-hududiy tamoyilga ko'ra tashkil etilgan edi. Okrug sudi qoshidagi prokuror sud palatasidagi prokurorga bo'ysunar edi, u esa o'z o'rnida – bevosita Adliya vaziriga bo'ysunar va uning oldida hisobdor edi. Barcha prokurorlar podsho tomonidan lavozimiga tayinlanar va lavozimidan ozod qilinardi.

Uchinchi davr. (1917-yildan 1922-yilgacha bo'lgan davr). Ushbu davrning o'ziga xosligi shunda bo'ldiki, bu vaqt oralig'ida prokuratura umuman mavjud bo'lmadi. Chunki 1917-yilda "Sudlar to'g'risida"gi birinchi dekret qabul qilinishi natijasida prokuratura faoliyati tugatildi. Bu davrda uyezdlar ijroiya qo'mitalari va viloyat ijroiya qo'mitalarining adliya bo'limlari qonunchilikka rioya qilinishi ustidan nazoratni olib borgan.

To'rtinchi davr. (1922-yildan 1977-yilgacha bo'lgan davr). 1917-yilda tugatilgan prokuratura faoliyati davlat uchun qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda zarur degan xulosaga kelinishi asosida prokuraturani tashkil etish harakatlari 1922-yildan boshlandi. Buning uchun Turkiston ASSRning davlat prokuraturasi tashkil qilinishi haqidagi dekret loyihasini tayyorlashga jiddiy kirishildi. 1922-yil 3-iyunda Turkiston ASSRning davlat prokuraturasi haqidagi nizom qabul qilinishi natijasida iyun oyidan boshlab Turkiston ASSRda prokuratura ham markazda, ham joylarda tashkil etildi. Shundan boshlab Turkistonda prokuraturaning tashkil etilishi boshlandi. Ushbu davrda prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi, ularning vakolatlari, vazifa hamda funksiyalari huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo'yildi.

Misol tariqasida, 1926-yil 29-sentabrda O‘zSSR kengashining MIQ tomonidan tasdiqlangan va 1927-yil 15-fevralda amalga kiritilgan “O‘zSSR sud tuzilishi to‘g‘risida”gi nizom, 1925-yilgi (Adliya xalq komissariati) haqidagi nizomni rivojlantirib, prokuraturaga qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan aybdor shaxslarga nisbatan intizomiy va ma‘muriy ta‘qib qilish huquqini, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi barcha organlar faoliyati ustidan umumiy nazoratni amalga oshirish huquqini belgilab berdi.

1929-yilning 27-yanvar kuni O‘zSSR adliya xalq komissariati qoshidagi prokuratura bo‘limi to‘g‘risida nizom qabul qilindi. 1966-yil 14-dekabrda tasdiqlangan “Harbiy prokuratura haqida”gi nizomga muvofiq harbiy prokuratura tashkil etildi. Ushbu nizomda harbiy prokuratura tizimi va tuzilishi, harbiy prokurorlarning vakolatlari, ular faoliyatida hududiy prokurorlar bilan o‘zaro munosabati belgilab qo‘yildi. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu davr prokuratura organlarining huquqiy asoslarini yaratishda muhim davr bo‘ldi.

Beshinchi davr. (1978-yildan 1991-yilgacha bo‘lgan davr). Ma‘lumki, huquqiy asoslar mavjud bo‘lgan holatda ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishida muammolar kamdan kam yuz beradi. Huquqiy asoslarning poydevori esa bu, shubhasiz, Konstitutsiyadir. 1978-yilda O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi qabul qilinishi qonuniylik ustidan nazoratni ta‘minlash bo‘yicha ildam qadamlar qo‘yilishi bo‘ldi deb aytishimiz mumkin. Shuningdek, 1979-yil 30-noyabrda “SSSR Prokuraturasi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganligi va unda prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosini tashkil etuvchi prinsiplarning huquqiy tartibga solinishi va mustahkamlanishi, ular faoliyatining asosiy yo‘nalishlari o‘z ifodasini topgan. Ushbu davrda prokuratura avtoritar rejim, ma‘muriy-buyruqbozlikni amalga oshirishda asosiy organ bo‘ldi deb aytish mumkin.

Oltinchi davr. (1991-yildan 2001-yilgacha bo‘lgan davr). Ushbu davr O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi hamda mustaqil davlatda faoliyat olib borgan prokuratura ekanligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 9-dekabr kuni O‘zbekiston

Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligi va bu qonun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligidan bir kun o‘tib qabul qilinganligi prokuraturaning mamlakatda Konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta’minlashda, adolatning qaror topishida nechog‘lik muhim organ ekanligidan dalolat beradi desak adashmaymiz.

Davlatchilikning dastlabki shakllanish davri, milliy qonunchilikning mavjud emasligi yosh mustaqil respublika oldiga barqarorlikni saqlab qolish, jamoat tartibi va jinoyatchilikning oldini olish va shunga o‘xshash jamiyatga qarshi va millatlararo kelishmovchilik holatlarini bartaraf etishda prokuratura organlari juda muhim edi. Shu sababli prokuratura organlarining huquqiy maqomi, asosiy vazifasi mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining to‘rtta moddasida mustahkamlab qo‘yildi. Bir so‘z bilan aytganda, prokuratura konstitutsiyaviy organ sifatida belgilandi.

Yettinchi davr. (2001-yildan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davr). 2001-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) qabul qilindi. Ushbu qonunda prokuratura organlari tizimidagi yangi tuzilma, ya’ni bugungi kunda faoliyat olib borayotgan Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti ham mamlakatdagi poraxo‘rlik, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya kabi jamiyat taraqqiyoti kushandalariga qarshi kurashuvchi tuzilma sifatida belgilandi. Qonun qabul qilingan vaqtdan boshlab bugungi kunga qadar prokuratura organlari faoliyatida, tizimida bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Bosh prokuratura huzurida Majburiy ijro byurosi tashkil etildi. Umuman olganda, bu davr prokuratura organlarini xalqqa yanada yaqinlashgan, ittifoq davridagi kuchishlalar, faqat jazolovchi tizim emas, balki inson huquqlarini himoya qiluvchi, haqiqiy huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida shakllanishi bilan alohida ahamiyatlidir. Ayniqsa, so‘nggi yillardagi huquqiy islohot natijasida prokuratura organlari tom ma’nodagi xalq xizmatchisiga aylandi. Fuqarolar prokuratura organlarini jazolovchi organ deb emas, huquqlarini himoya qiluvchi organ sifatida qabul qildi. Bundan tashqari, prokuratura organlarida ham ishlarni

tashkil etish bu tizimga shaffof, adolatli hamda nepotizm, tanish-bilishchilik kabi salbiy holatlardan xoli ravishda kadrlar tanlangani hisobiga sifat jihatidan ham yaxshilanishiga xizmat qildi deb bimalol aytish mumkin.

Prokuratura organlari tashkil etilishi va rivojlanishi uzoq davrni o'z ichiga olib, ularning har biri o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Qaysi davrda bo'lmasin prokuratura organlari "Adolat himoyachisi" sifatida jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan.

FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 10.06.2025-y., 03/25/1067/0498-son.
3. "Prokuratura to'g'risida"gi qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03/25/1022/0083-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. -T.: Adolat, 2000.
5. Jinoyat protsessi. Maxsus qism/ Z.F.Inog'omjonovning umumiy tahriri ostida. -T.:TDYU, 2003.
1. Prokuratura faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari. A.Maxmudov, J.Bokiyev. O'quv qo'llanma / Maxmudov Alisher, Bokiyev Jahongir. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 88 b.